

«EDUTECH INSIGHT»

Axborot xati

Pedagogika va texnika fanlari bo'yicha ilmiy-uslubiy elektron jurnal — Volume 1, 2026

«EduTech Insight» — Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti hamda «Innovative Academy RSC» mas'uliyati cheklangan jamiyati hamkorligida ta'sis etilgan ilmiy-uslubiy elektron jurnal (ommaviy axborot vositasi guvohnomasi № 1812021, 27.08.2026). Nashr pedagogika va texnika fanlari kesishmasidagi tadqiqotlarga qaratilgan: ta'lim metodikasi, kasb ta'limi, to'qimachilik va yengil sanoat texnologiyalari hamda ta'limni ishlab chiqarish bilan bog'lovchi ishlanmalar.

ALOQA

+998 93 569 23 06
info@edutechin.uz

VEB-SAYT

edutechin.uz
t.me/inacademyuz

MANZIL

EduTech Insight
Toshkent, O'zbekiston

ISSN: ariza topshirilgan · Har oy, faqat elektron shaklda · DOI: har bir maqolaga · Tillar: o'zbek, rus, ingliz

Ushbu axborot xati maqola topshirishning to'liq tartibi, talablar va tayyor shablonni o'z ichiga oladi.

01 _ Jurnal haqida

«EduTech Insight» — Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti hamda «Innovative Academy RSC» mas'uliyati cheklangan jamiyati hamkorligida ta'sis etilgan ilmiy-uslubiy elektron jurnal (ommaviy axborot vositasi guvohnomasi № 1812021, 27.08.2026). Nashr pedagogika va texnika fanlari kesishmasidagi tadqiqotlarga qaratilgan: ta'lim metodikasi, kasb ta'limi, to'qimachilik va yengil sanoat texnologiyalari hamda ta'limni ishlab chiqarish bilan bog'lovchi ishlanmalar. Jurnal to'liq ochiq kirishda ishlaydi va mualliflardan nashr uchun hech qanday to'lov olmaydi. Har bir qo'lyozma tahririy ko'rikdan va soha mutaxassisining bir tomonlama yopiq taqrizidan o'tadi; taqrizni tashkil etish Ta'sis shartnomasiga muvofiq Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti zimmasiga yuklangan. Birinchi son 2026-yil sentyabrda chiqadi — tahririyat ayni damda unga maqola qabul qilmoqda.

2026

ta'sis etilgan yil

12

yiliga son — oyiga bir marta

DOI

har bir maqolaga biriktiriladi

0

nashr uchun to'lov (so'm)

02 _ Tematik yo'nalishlar

Jurnal quyidagi ikki yo'nalish bo'yicha tugallangan tadqiqotlarga asoslangan maqolalarni qabul qiladi. Har bir yo'nalish jurnal saytida alohida seksiya sifatida yuritiladi — maqolangiz aynan o'sha seksiyada e'lon qilinadi:

■ Pedagogika

■ Texnika fanlari

03 _ Indekslish

Jurnal 2026-yilda ta'sis etilgan va hozircha hech qanday indeks bazasida ro'yxatdan o'tmagan. Birinchi son chiqqach quyidagi bazalarga arizalar topshiriladi; qabul qilingan bazalar jurnal saytida e'lon qilib boriladi:

Rejalashtirilgan arizalar

Quyidagi bazalarga ariza topshirish rejalashtirilgan. Hech biri hali tasdiqlanmagan — ro'yxat faqat qabul qilingan bazalar bilan to'ldiriladi:

DOAJ

Crossref

Google Scholar

OpenAlex

BASE

CORE

ROAD

InLibrary

EuroPub

04 _ Maqola topshirish

Maqolangizni quyidagi qulay kanallardan biri orqali yuboring. Yuborishda jurnal nomini (EDUTECH) ko'rsating:

TELEGRAM-BOT

@inacademy_bot

Maqolani DOCX shaklida botga yuboring — tizim avtomatik qabul qiladi

ELEKTRON POCHTA

info@edutechin.uz

Mavzu qatorida «EDUTECH» deb yozing va DOCX faylni ilova qiling

ADMINISTRATOR

@inacademy_uz

Savollar va qo'shimcha ma'lumot uchun Telegram orqali murojaat qiling

05 _ Tahririyat jarayoni

Har bir maqola quyidagi bosqichlardan o'tadi. Jarayonning har bir bosqichi haqida muallifga xabar berib boriladi:

- | | |
|---|---|
| 1 Qabul
Qo'lyozma tizimga qabul qilinadi va ro'yxatga olinadi | 2 Tahririy ko'rik
Mas'ul kotib mavzuga muvofiqlik va rasmiylashtirishni tekshiradi |
| 3 Originallik
Matn jurnalning originallik siyosatiga muvofiq ko'rib chiqiladi | 4 Taqrizchi tanlash
Soha mutaxassisi Ta'xis shartnomasiga muvofiq TTYSI tomonidan belgilanadi |
| 5 Mutaxassis taqrizi
Bir tomonlama yopiq (single-blind) taqriz o'tkaziladi | 6 Tahririy qaror
Bosh muharrir to'rt qarordan birini qabul qiladi |
| 7 Qayta ishlash
Zarur bo'lsa muallif matnni tuzatadi va qayta yuboradi | 8 Sahifalash
Maqola jurnal shabloniga solinadi va tekshiriladi |
| 9 DOI
Maqolaga doimiy raqamli identifikator biriktiriladi | 10 Nashr
Maqola saytda ochiq kirishda e'lon qilinadi |
| 11 PDF va ma'lumotnoma
Muallifga tayyor PDF va nashr haqida ma'lumotnoma yuboriladi | |

06 _ Texnik talablar

Fayl formati	Faqat Microsoft Word (.docx). PDF yoki skan qabul qilinmaydi
Shrift	Cambria yoki Times New Roman, 12 o'lcham
Qatorlar oralig'i	1,15 interval
Sahifa	A4; xoshiyalar: yuqori/past — 2 sm, chap — 3 sm, o'ng — 1,5 sm
Hajm	Kamida 5 bet (tavsiya: 5–12 bet)
Annotatsiya	150–200 so'z
Kalit so'zlar	5–10 ta
ORCID	Har bir muallif uchun majburiy — to'liq havola ko'rinishida
Originallik	Matn tahririy originallik tekshiruvidan o'tadi — foizli me'yor qo'yilmaydi

07 _ Maqola tuzilishi

Quyidagi tartibga rioya qilish maqolaning avtomatlashtirilgan tizim tomonidan to'g'ri qayta ishlanishi uchun muhim — shablonda berilgan ketma-ketlikni o'zgartirmang:

01	Maqola sarlavhasi	asosiy tilda, bosh harflar bilan, alohida qatorda
02	Muallif bloklari	F.I.Sh. → tashkilot → e-mail → ORCID; har biri alohida qatorda
03	Ilmiy rahbar	bo'lsa — bir qatorda, «Ilmiy rahbar:» so'zi bilan boshlanadi
04	Annotatsiya va kalit so'zlar	faqat maqolaning asosiy tilida
05	Asosiy matn	KIRISH → MATERIALLAR VA USULLAR → NATIJALAR → MUHOKAMA → XULOSA
06	Foydalanilgan adabiyotlar	APA uslubida, raqamlangan ro'yxat
07	Boshqa tillardagi ma'lumotlar	maqolaning eng oxirida, alohida blokda

08 _ Til qoidolari

Maqola boshida ma'lumotlar faqat asosiy tilda beriladi. Sarlavha, mualliflar va annotatsiyaning boshqa tillardagi tarjimalari maqolaning **eng oxirida**, «MAQOLA HAQIDA BOSHQA TILLARDA» blokida joylashtiriladi:

Maqola tili	Maqola boshida	Yakuniy blokda
O'zbek tilida	O'zbekcha sarlavha, mualliflar, annotatsiya, kalit so'zlar	Ingliz va rus tillarida
Rus tilida	Ruscha sarlavha, mualliflar, annotatsiya, kalit so'zlar	Ingliz tilida
Ingliz tilida	Inglizcha sarlavha, mualliflar, annotatsiya, kalit so'zlar	Rus tilida

Yorliqlarni (**Annotatsiya**:, **Kalit so'zlar**:, **Title**:, **Authors**:, **Abstract**: va h.k.) o'zgartirmang — tizim ularni avtomatik o'qiydi.

09 _ Mualliflarni rasmiylashtirish

Har bir muallif haqidagi ma'lumot **alohida qatorlarda** yoziladi: F.I.Sh. — alohida, tashkilot — alohida, e-mail — alohida, ORCID — alohida. Ikki va undan ortiq muallif bo'lsa, bloklar ketma-ket joylashtiriladi. **Birinchi muallif mas'ul muallif hisoblanadi** — ism qatoriga * yoki boshqa belgi qo'yish shart emas:

1-MUALLIF (MAS'UL)

Akbarova Nilufar Karimovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent,
O'zbekiston

n.akbarova@example.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0000-0000-0001>

2-MUALLIF

Karimov Aziz Baxtiyorovich

Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O'zbekiston
a.karimov@example.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0000-0000-0002>

Ism qatorida faqat F.I.Sh. yoziladi — unvon, ilmiy daraja, «talaba», «magistrant» tashkilot qatorida ko'rsatiladi. Ilmiy rahbar bir qatorda: **Ilmiy rahbar: Familiya Ism Otasining ismi, PhD, dotsent, tashkilot nomi**

10 _ Formulalar, rasmlar va jadvallar

Formulalar

Word'ning Equation muharririda teriladi (Insert → Equation). Formulani rasm shaklida joylashtirish mumkin emas. Matnda havola qilinadigan formulalar o'ng tomonda (1) tarzida raqamlanadi.

Rasmlar

Matn ichiga joylangan (In line with text), sifati kamida 300 dpi. Har bir rasm ostida markazda nom yoziladi: «1-rasm. Rasm nomi». Muhim matn rasm ichida qolib ketmasligi kerak.

Jadvallar

Faqat Word'ning haqiqiy jadvali (rasm emas). Jadval nomi ustida yoziladi: «1-jadval. Jadval nomi». Matn ichida barcha rasm-jadvallarga havola bo'lishi lozim.

11 _ Foydalanilgan adabiyotlar

Adabiyotlar ro'yxati APA (American Psychological Association) uslubida rasmiylashtiriladi. Matn ichida havolalar kvadrat qavsda beriladi: [1], [2]. Ro'yxat «Foydalanilgan adabiyotlar» sarlavhasi ostida raqamlanadi. **Kirill yoki o'zbek alifbosidagi manbalar** xalqaro indekslash uchun lotin transliteratsiyasida (yoki ingliz tarjimai qavs ichida) ham keltiriladi.

Jamolov, J. (2012). Chet til o'qitish metodikasi. O'qituvchi.

Kholikova, N. (2020). Poetic Features of Uzbek Poetry. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 04(84), 615–623.

12 _ Nashr to'lovi

APC

Bepul

Jurnalda nashr etish butunlay bepul: qo'lyozmani topshirish, taqriz, nashr, DOI berish va ochiq kirishga chiqarish uchun mualliflardan hech qanday to'lov olinmaydi. Tahririyat xarajatlari muassislari — Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti hamda «Innovative Academy RSC» MChJ hisobidan qoplanadi va moliyalashtirish manbai tahririy qarorlarga ta'sir ko'rsatmaydi.

13 _ Tayyor shablon

MAQOLA SARLAVHASI

1-muallif F.I.Sh. * · ORCID

Ish joyi, shahar, mamlakat · E-mail

2-muallif F.I.Sh. · ORCID

Ish joyi, shahar, mamlakat · E-mail

Abstract: ... Keywords: ...

Аннотация: ... Ключевые слова: ...

Annotatsiya: ... Kalit so'zlar: ...

KIRISH ...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Maqolani rasmiylashtirishni osonlashtirish uchun tayyor Word-shablonni yuklab oling. Shablon asosida tayyorlangan maqolalar tizim tomonidan xatosiz va tezkor qabul qilinadi:

 **Shablonni yuklab olish (.docx)**

<https://edutechin.uz/downloads/EDUTECH-article-template-UZ.docx>

14 _ Biz bilan bog'laning



TELEGRAM-KANAL
t.me/inacademyuz



MUALLIFLAR BOTI
[@inacademy_bot](https://t.me/inacademy_bot)



E-MAIL
info@edutechin.uz



TELEFON
+998 93 569 23 06



VEB-SAYT
edutechin.uz



Botga o'tish

**Birinchi songa maqola qabul qilinmoqda —
ishingizni bugun yuboring!**

Savollaringiz bo'lsa, jamoamiz Telegram orqali yordam berishga doim tayyor.

 [@inacademy_bot](https://t.me/inacademy_bot)